



**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MAY




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2019-2023- yillar yanvar-may)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlqo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son antirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2019- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	5 841,3	100,0	109,7
Termiz sh.	1 691,2	29,0	114,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	226,6	3,9	105,9
Angor	242,1	4,1	105,4
Boysun	178,9	3,1	106,0
Bandixon	126,0	2,2	115,3
Muzrabot	254,9	4,4	106,0
Denov	747,9	12,8	111,2
Jarqo'rg'on	340,0	5,8	109,5
Qumqo'rg'on	362,4	6,2	109,4
Qiziriq	220,3	3,8	105,5
Sariosiyo	337,5	5,8	106,6
Termiz	258,6	4,4	106,7
Uzun	237,7	4,1	106,7
Sherobod	310,6	5,3	107,8
Sho'rchi	306,8	5,3	110,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 075,7 ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 % ni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.
 ▶ Hajmi, ming so'mda — O'sish sur'ati, % da


Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2075,7	107,2
Termiz sh.	8606,4	110,7
Oltinsoy	1202,7	103,7
Angor	1719,3	103,1
Boysun	1463,7	104,0
Bandixon	1555,5	102,7
Muzrabot	1691,5	103,7
Denov	1820,6	108,6
Jarqo'rg'on	1460,6	107,0
Qumqo'rg'on	1450,0	106,9
Qiziriq	1813,3	103,4
Sariosiyo	1512,6	104,3
Termiz	3134,9	104,3
Uzun	1293,1	104,4
Sherobod	1503,4	105,6
Sho'rchi	1371,9	107,8

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2019-2023- yillar yanvar-may)



2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-may** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **531,0** mlrd. soʻmga oshib, **3700,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 63,3% ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **15,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror oʻsishiga, yangi ish oʻrinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-may, mlrd. soʻmda)

Surxondaryo viloyati – 3700,2

Termiz sh – 732,1	Angor – 188,3
Denov – 456,6	Oltinsoy – 183,1
Sariosiyo – 234,2	Uzun – 180,9
Jarqoʻrgʻon – 234,1	Termiz – 179,5
Sherobod – 231,3	Qiziriq. – 176,3
Shoʻrchi – 223,9	Boysun – 145,2
Qumqoʻrgʻon – 221,7	Bandixon – 108,6
Muzrabot – 204,5	


Xizmatlar sohasida band boʻlgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **43,3** foiz yoki **732,1** mlrd. soʻm Termiz shahriga toʻgʻri keldi.



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	5 841,3	100,0	109,7
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	298,4	5,1	126,8
Moliyaviy xizmatlar	1 359,3	23,3	121,1
Transport xizmatlari	823,3	14,1	104,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	765,3	13,1	100,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183,5	3,1	105,7
Savdo xizmatlari	2 023,3	34,6	103,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	138,4	2,4	101,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	303,6	5,2	134,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	77,8	1,3	106,5
Ijara xizmatlari	106,1	1,8	95,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	145,0	2,5	100,0
Shaxsiy xizmatlar	171,0	2,9	104,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	86,0	1,5	104,2
Boshqa xizmatlar	125,6	2,1	99,4

Moliyaviy xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)




2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **956,3** mlrd. so'mga oshib, **1359,3** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **23,3** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **121,1** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-may)

2023- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **94,6** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,4** foizni yoki **617,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **123,8** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-may)

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
Surxondaryo viloyati	94,8	3,5	1,7
Termiz sh	89,2	7,7	3,2
Oltinsoy	100,0		
Angor	99,8		0,2
Boysun	100,0		
Bandixon	100,0		
Muzrabot	100,0		
Denov	99,3		0,7
Jarqo'rg'on	99,9		0,1
Qumqo'rg'on	100,0		
Qiziriq	99,8		0,2
Sariosiyo	97,2		2,8
Termiz	99,9		0,1
Uzun	100,0		
Sherobod	100,0		
Sho'rchi	100,0		


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati.	1 359,3	Uzun	34,1
Termiz sh.	617,2	Termiz	33,2
Denov	187,0	Muzrabot	31,0
Qumqo'rg'on	110,0	Qiziriq	28,8
Sariosiyo	73,6	Angor	27,5
Jarqo'rg'on	71,6	Oltinsoy	22,6
Sho'rchi	47,5	Boysun	19,3
Sherobod	45,2	Bandixon	10,6

Transport xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-may)


2023- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **823,3** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati **104,9 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,1 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyun holatiga koʻra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʻliq boʻlib, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **729** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,3 %** ini tashkil etdi. Ulardan **719** birlik (**98,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari boʻyicha tarkibi
(2023- yil yanvar-may)




Quruqlikdagi transport

Omborlarga joylashtirish

Pochta va kurerlik

Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023-yil yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **100,3 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,1 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.


2023- yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **765,3** mlrd. so'mga yetdi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **65,6 %**.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-may oylarida ushbu ko'rsatkich **67,2 %** ni tashkil etgan.




Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-may** oylarida savdo xizmatlari hajmi **287,3** mlrd. so'mga oshib, **2 023,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **103,5 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **47,8 %** yoki **8,1** ming birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **92,0 %** (**8,1** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-may)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar


2023- yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **95,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Surxondaryo viloyati	4,5	12,2	83,3
Termiz sh	5,7	16,9	77,4
Oltinsoy	3,8	5,8	90,4
Angor	3,6	3,9	92,5
Boysun	4,0	2,0	94,0
Bandixon	4,1	0,4	95,5
Muzrabot	2,8	35,9	61,3
Denov	5,7	18,0	76,4
Jarqo'rg'on	4,2	4,2	91,5
Qumqo'rg'on	4,3	2,7	93,0
Qiziriq	3,2	23,6	73,2
Sariosiyo	3,9	14,2	81,9
Termiz	4,1	7,9	88,0
Uzun	3,9	3,0	93,1
Sherobod	3,6	18,4	77,9
Sho'rchi	3,2	5,6	91,3

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **298,4** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati **126,8** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyun holatiga koʻra, «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **0,3** ming birlikka yetdi, shundan **0,3** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-may)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-may)

	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati	298,4	100,0	126,8
Termiz sh	65,0	21,8	126,2
Oltinsoy	14,2	4,8	113,6
Angor	11,4	3,8	116,0
Boysun	10,9	3,7	123,9
Bandixon	6,4	2,2	122,7
Muzrabot	13,4	4,5	131,1
Denov	39,1	13,1	130,0
Jarqoʻrgʻon	22,6	7,6	141,4
Qumqoʻrgʻon	22,9	7,7	136,8
Qiziriq	10,4	3,5	120,6
Sariosiyo	18,1	6,1	118,3
Termiz	9,2	3,1	120,6
Uzun	16,7	5,6	130,6
Sherobod	18,7	6,3	131,9
Shoʻrchi	19,4	6,5	122,3

¹ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Termiz shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **14,4** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **65,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **126,2 %** ni tashkil etdi.


Bandixon tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **6,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yiling yanvar-may oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **228,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **5,1 %** ni tashkil etgan.



bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish **Telekommunikatsiya xizmatlari** kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

Surxondaryo viloyati. – 285,9 ¹⁾ (2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2023- yil yanvar-may)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	298,4	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	291,5	97,7
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	285,9	98,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	5,6	1,9
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	6,9	2,3
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashirlik xizmatlari	4,5	65,2
Kino - videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,5	7,2
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,5	7,2
Boshqa axborot xizmatlari	1,4	20,4

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **303,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **134,3** % ni tashkil etdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-may** oylarida ularning ulushi **5,2** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **77,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,3** % ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **438** birlikni tashkil etdi, shundan **363** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati	77,8	Sho'rchi	2,3
Termiz sh	44,2	Sariosiyo	1,4
Denov	6,4	Uzun	1,3
Boysun	4,6	Angor	1,2
Sherobod	4,5	Qiziriq	1,0
Termiz	3,4	Oltinsoy	1,0
Jarqo'rg'on	3,0	Muzrabot	0,8
Qumqo'rg'on	2,4	Bandixon	0,4

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **35,0** mlrd. so'mga oshib, **183,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 483** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 470** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-may)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **138,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi		(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)	
Surxondaryoviloyati	138,4	Qumqo'rg'on	7,1
Termiz sh.	27,2	Qiziriq	7,0
Denov	14,9	Uzun	7,0
Jarqo'rg'on	12,2	Boysun	6,2
Angor	10,6	Oltinsoy	6,0
Sho'rchi	9,4	Muzrabot	5,6
Sariosiyo	8,7	Termiz	5,5
Sherobod	7,6	Bandixon	3,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)

2023- yilning yanvar-may oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **86,0** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,5 %** ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,2 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

Surxondaryoviloyati
– 86,6

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)

Termiz sh. – 68,8

Jarqo'rg'on– 0,8

Denov– 4,5

Muzrabot– 0,8

Termiz – 3,3

Boysun– 0,7

Sherobod– 1,3

Sho'rchi. – 0,7

Angor– 1,0

Uzun– 0,6

Qumqo'rg'on– 1,0

Qizirig-0.6

Sariosiyo – 0,9


Oltinsoy– 0,5

Bandixon– 0,3

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2019-2023-yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **145,0** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,0** % ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

2023- yilning yanvar-mayga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **2,9** mlrd. so'mga oshib, **106,1** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-may** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.